

## TASHQI MEHNAT MIGRANTLARI UCHUN MA'LUMOT:

Agar siz Rossiya Federatsiyasida ishlasangiz va sizda yoki yaqinlaringizda tuberkulyoz belgilarini sezсангиз, quyidagi manzillar bo'yicha tibbiy yordam so'rang:

### TASHQI MEHNAT MIGRATSİYASI AGENTLIGINING VAKILLIK IDORALARINING YUQUMLI KASALLIKLAR

#### SHIFOXONALARI:

**Yekaterinburg shahri:** 40-sonli shahar klinik shifoxonasi, Volgogradskaya ko'chasi, 189/8, Yugj-Zapadniy, Verx-Isetskiy tumani. Tel.: **8 (343) 240-04-97.**

**Novosibirsk shahri:** 1-son shahar yuqumli kasalliklar klinik shifoxonasi, Semya Shamshinix ko'chasi, 40-uy. Tel.: **8 (383) 222-73-23; 8 (383) 218-17-62.**

**Tula shahri:** Bratya Jabrovych ko'chasi, 4-uy. Tel.: **8 (487) 256-17-34.**

**Voronej shahri:** Viloyat klinik yuqumli kasalliklar shifoxonasi, Baxmetyeva ko'chasi, 10-uy. Tel.: **8 (473) 263-17-55; 8 (473) 263-17-24; 8 (473) 225-67-04.**

**Krasnodar shahri:** Mitrofan Sedin ko'chasi, 204-uy. Tel.: **8 (861) 255-46-69.**

**Volgograd shahri:** 1-sonli klinik yuqumli kasalliklar shifoxonasi, Klenoviy pereulok ko'chasi, 1. Tel.: **8 (844) 235-59-19.**

**Nijniy Novgorod shahri:** 2-Yuqumli kasalliklar shifoxonasi-2, Barminskaya ko'chasi, 8/2. Tel.: **8 (831) 433-00-33.**

**Xanti-Mansi avtonom okrugi:** **Nijevartovsk shahri,** Kalinina ko'chasi, 40-uy. Tel.: **8 (346) 736-53-65.**

**Irkutsk shahri:** Viloyat yuqumli kasalliklar klinik shifoxonasi, Marshal Konev ko'chasi, uy raqami 90 k4. Tel.: **8 (395) 230-04-46.**

**Amur shahri:** Viloyat yuqumli kasalliklar shifoxonasi, Batareya ko'chasi, 15. Tel.: **8(416) 277-21-69.**

**Krasnoyarsk shahri:** Межрайонная больница №5, ул. Ак. Курчатова, 17/8. Tel.: **8(391) 205-27-22; 8(391) 246-93-72.**

**Perm shahri:** Klinik Ftiziopulmonologiya markazi, Kosmonavtlar ko'chasi, 160. Tel.: **8(416) 277-21-69.**

**Samara shahri:** 5-son shahar yuqumli kasalliklar shifoxonasi, Sovet Armiysi ko'chasi, 214. Tel.: **8 (416) 277-21-69.**

**Ufa shahri:** Klinik yuqumli kasalliklar shifoxonasi, 10-bo'lim, Zapototskiy ko'chasi, 37. Tel.: **8 (934) 725-01-87.**

**Sankt-Peterburg shahri:** 1) Klinik yuqumli kasalliklar shifoxonasi. Botkina, Piskarevskiy prospekti, 49. Tel.: **8 (812) 419-78-87;**

2) Respublika klinik yuqumli kasalliklar shifoxonasi, Shlisserburg shossesi ko'chasi, 3. Tel.: **8 (812) 464-94-14.**

## TUBERKULYOZNING DAVOSI BOR!

**ENG MUHIMI KASALLIKNI ERTA ANIQLASH,  
DORI-DARMONLAR BILAN DAVOLANISHNI  
IMKON QADAR ERTA BOSHLAB  
SOG'AYGUNGA QADAR TO'LIQ DAVOM  
ETTIRISHDIR.**

### TUBERKULYOZNI DAVOLASH BEPUL!

#### Ichki mehnat muhojirlari uchun ma'lumot

(Toshkent shahrida ishlovchi va yashovchi O'zbekiston fuqarolari):

agar siz o'zingiz yoki yaqinlaringizda tuberkulyoz belgilarini topsangiz, **vaqtinchalik ro'yxatga olish joyidagi poliklinikaga** yoki quyidagi manzilda murojaat qiling:

Respublika ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi:

**Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Majlisi ko'chasi, 1-uy**

**tel. +998 99 353 76 96**

**+998 71 278 02 09**

NNT «INTILISH» Respublika axborot-ta'lim markazi:


**Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Asaka ko'chasi 1-tor ko'chasi, 10-uy.**

**tel. +998 71 202-15-55**

Ushbu nashr Amerika Qo'shma Shtatlari Xalqaro Taraqqiyot Agentligi (USAID) orqali Amerika xalqining yordами bilan amalga oshirildi. «INTILISH» RATM NNT nashrning mazmuni uchun mas'uldir, bu esa USAID pozitsiyasidan farq qilishi mumkin.



## «O'ZBEKİSTONDA TUBERKULYOZNI TUGATISH» LOYIHASI



## MIGRATSİYA SHAROITLARIDA TUBERKULYOZ

Migrantlar uchun ma'lumot

2023

## TUBERKULYOZ NIMASI BILAN XAVFLI

Tuberkulyoz gripp yoki shamollahash kabi o'z-o'zidan o'tib ketmaydi. Agar tuberkulyoz davolanmasa yoki unga qarshi dorilarni ichish vaqtidan o'tkazib yuborilsa, kasallik rivojlanib, har qanday organga ta'sir qiladi, davolash qiyin bo'lgan og'ir shaklga aylanadi.

Kechiktirib aniqlangan tuberkulyoz mehnatga layoqatni yo'qotish, nogironlik, bepushtlik va hayot uchun xavfli bo'lgan holatlarga olib kelishi mumkin. Tuberkulyozni erta aniqlash va o'z vaqtida boshlangan davo tanaga kamroq zarar yetkazadi va infektsiyani boshqalarga yuqtirish xavfini kamaytiradi.

## TUBERKULYOZNING DAVOSI BOR!

**Tuberkulyoz** – yuqumli kasallik bo'lib, bemorning tanasida **tuberkulyoz mikobakteriyalari** ko'payishi bilan rivojlanadi. Tuberkulyoz nafaqat o'pkani, balki boshqa a'zolarni ham zararlashi mumkin.

Tuberkulyoz mikobakteriyalari odamdan odamga **havo-tomchi yo'li** orqali yuqadi. Har bir insonning tuberkulyoz bilan kasallanish xavfi mavjud.

## TUBERKULYOZ BELGILARI:

- 2 haftadan ko'proq vaqt davomida tana haroratining  $37-37,5^{\circ}\text{S}$  gacha ko'tarilishi.
- 2-3 xtaftadan ortiq vaqt mobaynida kuzatiladigan yo'tal (agar o'pka zararlangan bo'lса).
- Umumiyl xolsizlik va tez charchash.
- Terlashning kuchayishi.
- Ishtahaning pasayishi, vazn yo'qotish.
- Ko'krak qafasidagi og'riq.

Xavf guruhi bo'lgan insonlar, shu jumladan migrantlar, kasallikni erta aniqlash imkoniyatini o'tkazib yubormaslik maqsadida yilda 1-2 marotaba rentgenologik tekshiruvdan o'tishlari maqsadga muvofiq.



Nima uchun migrantlar tuberkulyozga chalinish xavfi yuqori bo'lgan guruhg'a kiritilgan?

Buning bir nechta sabablari bor:

- **qoniqarsiz yashash sharoitlari** – ventilyasiysi, isitish tizimi qoniqarsiz, yorug'lik kam tushadigan kichik zah xonalarda bir necha kishi yashashi, shuningdek tuberkulyozning yuqumli shakli bilan og'rigan bemor xonadoshlarida ham tuberkulyoz kasalligi rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin
- **yetarlicha bo'limgan va/yoki noto'g'ri ovqatlanish;** oziq-ovqatdan keladigan muhim oziq moddalar va vitaminlar yetishmasligi immunitetning pasayishiga va tuberkulyozning rivojlanishiga olib keladi.
- **ish soati chegaralanmagan og'ir mehnat bilan shug'ullanish,** ruhiy zo'riqish, spirtli ichimliklar va giyohvand moddalarni iste'mol qilish, tamaki chekish inson organizmini zaiflashtirib, immunitetni pasaytiradi.
- **ko'pincha migrantlar shifokorga murojaat etmaydi,** davolanih uchun o'z mablag'ini tejaydi, ish joyini yo'qotishdan qo'rqadi, **lekin bu bilan inson o'z sog'lig'inи va xatto hayotini xavf ostiga qo'yadi.**

## TUBERKULYOZNI QANDAY ANIQLASH MUMKIN

- Yashash hududidagi poliklinikaga yoki tuberkulyozga qarshi tekshiruvdan o'tishda yordam bera oladigan jamoat tashkilotiga murojaat qilish.
- Rentgen yoki flyuorografiya ko'riganidan o'tish.
- Ftiziatr ko'riganidan o'tish.
- Shifokor buyurgan tahlillarni o'z vaqtida topshirish.

## TUBERKULYOZ QANDAY DAVOLALANADI

Tuberkulyozni davolashning asosiy usuli 4-5 turdag'i dori-darmonlarni uzoq vaqt - 6 oy yoki undan ko'proq vaqt davomida qabul qilish. **Dori-darmonlarni faqatgina shifokor tavsiyasiga ko'ra qabul qilish lozim.** Tuberkulyozga qarshi barcha dori vositalar bepul beriladi.

Kasallikning turiga qarab davolashni shifoxona yoki uy sharoitida boshlash mumkin. Bir necha hafta davomida tuberkulyozga qarshi dorilarni muntazam iste'mol qilgandan so'ng, odam boshqalar uchun zararsiz bo'ladi. Uyda davolanayotganda, odam to'liq davolanmaguncha dorilarni qabul qilishi kerak, uni shifokor belgilaydi.

**Tuberkulyozdan davolanish kursini o'zboshimchalik bilan to'xtatish mumkin emas!**

Davolanish davomida dorilarni tartibsiz qabul qilish kasallikning dorilarga turg'un, og'ir shakllariga olib kelishi mumkin. Bunday holda, tuberkulyozdan to'liq tiklanish uchun ko'proq vaqt va tuberkulyozga qarshi boshqa dorilar kerak bo'ladi.

**Muvaffaqiyatli davolanish uchun o'z vaqtida rasional ovqatlanish, vaqtida dam olish, og'ir jismoniymehnatdan o'zini asrab turish lozim.**